

KUTUBXONALARDA MONITORING JARAYONI: MAQSADI VA AMALIYOTI

Kulieva Gulnoza Ibodullaevna

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi Hududiy axborot-kutubxona markazlarini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bosh mutuxassisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistondagi kutubxonalar faoliyatida monitoring jarayonining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda monitoringning xizmat sifatini baholash, foydalanuvchi ehtiyojlarini aniqlash, resurslardan samarali foydalanish va strategik qarorlar qabul qilishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, xalqaro miqyosda qo‘llanilayotgan analitik tizimlar (SirsiDynix, OCLC, RFID va boshqalar) va O‘zbekistonda mavjud monitoring amaliyoti (asosan Excel asosida) solishtirilib, yagona axborot platformasining yetishmasligi asosiy muammo sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: tahliliy tizimlar, kutubxona xizmatlari, platforma, axborot resurslar.

Abstract: The article analyzes the role and significance of the monitoring process in the activities of libraries in Uzbekistan. It highlights the role of monitoring in assessing service quality, identifying user needs, ensuring the efficient use of resources, and supporting strategic decision-making. The article also compares the analytical systems used at the international level (such as SirsiDynix, OCLC, RFID, and others) with the current monitoring practices in Uzbekistan, which are mainly based on Microsoft Excel. The lack of a unified information platform integrating all libraries is identified as a key issue.

Keywords: analytical systems, library services, platform, information resources.

Zamonaviy kutubxona va axborot faoliyatining rivojlanish bosqichi global miqyosda uzluksiz o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi. Ushbu o‘zgarishlar nafaqat institutlar tizimida, balki shaxslararo kommunikatsiya va ramziy axborot almashinuvi amaliyotlarida ham o‘z ifodasini topmoqda. Doimiy o‘zgarishlar zamonaviy jamiyatning muqarrar holati sifatida namoyon bo‘lib, ularning asosiy sababchisi axborot va media texnologiyalarining uzluksiz rivojlanishi hamda matn orqali amalga oshiriladigan kommunikatsiya jarayonlaridagi innovatsiyalardir. Bu jarayonlar, o‘z navbatida, milliy va xalqaro huquqiy- me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan vazifalarning tizimli nazorati va tahlilini, shuningdek, kutubxona-axborot sohasining kasbiy va jamoat talablarini o‘rganishni, jumladan,

professional tashkilotlar hisobotlari, ilmiy tadqiqotlar va ta'lim dasturlarining mazmuniy yangilanishlarini doimiy ravishda monitoring qilishni talab qiladi.¹⁶

Monitoring — bu kutubxona faoliyatining samaradorligini baholash, mavjud jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish uchun doimiy ravishda olib boriladigan tizimli jarayon hisoblanadi. Kutubxonalarda monitoringning asosiy maqsadi — axborot xizmatlarining sifatini oshirish, foydalanuvchilarning ehtiyojlarini to'liq qondirish hamda faoliyat jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchilik va muammolarni o'z vaqtida aniqlashdir. Monitoring amaliyoti kutubxonaning turli yo'nalishlarini qamrab oladi, jumladan fondni shakllantirish, axborot-resurslarni boshqarish, foydalanuvchilar bilan ishlash va texnologik jarayonlarni nazorat qilish. Ushbu jarayon orqali kutubxonalar o'z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib boradilar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlaydilar va milliy hamda xalqaro standartlarga muvofiq xizmat ko'rsatish sifatini oshiradilar. Shuningdek, monitoring natijalari asosida kutubxonalar strategik rejalashtirish, kadrlar malakasini oshirish va ta'lim dasturlarini yangilash bo'yicha muhim qarorlar qabul qiladi. Shu tariqa, monitoring kutubxonaning barqaror rivojlanishi va zamon talablariga moslashuvi uchun muhim vosita hisoblanadi.

Dunyod mamalakatlarida kutubxonalarida SirsiDynix BLUEcloud Analytics platformasi¹⁷, OCLC Choreo Insights, EZproxy Analytics (OCLC), OCLC Wise¹⁸, Alma Analytics (Ex Libris Alma)¹⁹ kabi analitik tizimlar qo'llanib kelmoqda.

SirsiDynix'ning "BLUEcloud" platformasining bir qismi bo'lib, kutubxona ma'lumotlarini (ils tizimidan) to'plab, turli interaktiv hisobotlar, diagrammalar va vizualizatsiyalar shaklida taqdim etadi. OCLC Choreo Insights Akademik kutubxonalar uchun mo'ljallangan tahliliy vosita. Kutubxonaning to'plamlarini (collection) boshqa kutubxonalar bilan solishtirish, bo'sh joylar va takrorlanishlar, predmet bo'yicha buzilishlar (gap) tahlili va h.k. imkoniyatlarni beradi. OCLC Wise- Bu jamoatchilik kutubxonalari uchun CRM (mijozlar bilan aloqalar), marketing, analytics hamda an'anaviy ILS funksiyalarini birlashtirgan tizim. Foydalanuvchi ma'lumotlarini, foydalanish odatlarini tahlil qilish, resurslardan foydalanish, kampaniyalar monitoringi kabi imkoniyatlar mavjud. EZproxy Analytics (OCLC)- Elektron resurslarga kirish va autentifikatsiya jarayonlarini kuzatadi. Masalan, foydalanuvchi loginlari, ma'lumotlar bazalari va resurs turlari bo'yicha foydalanish statistikasi, xavfsizlikni ta'minlaydi va hokazo. Alma Analytics (Ex Libris Alma)- Alma ILS/laboratoriya boshqaruv tizimida mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish

¹⁶ Мониторинг образовательных программ библиотечного-информационной направленности в условиях изменений нормативно-правового регулирования. - В.А. Мутьев- Вестник МГУКИ -2024-1(117)

¹⁷ <https://www.sirsidynix.com/bluecloud-analytics-2/>

¹⁸ oclc.org

¹⁹ libris.be

imkonini beradigan modul. Foydalanuvchi, qarzga olish, elektron resurslar, jurnallar va boshqa elementlar bo'yicha statistikalar, hisobotlar yaratish va ularni vizuallashtirish uchun vositalar mavjud. Library.track (RFID bilan birga ishlaydigan monitoring vositasi) - Logicpulse kompaniyasi (Portugaliya) tomonidan ishlab chiqilgan kutubxonalarni avtomatlashtirish va monitoring qilish uchun mo'ljallangan RFID asosidagi tizim. UNIMARC standarti asosida ishlaydi, RFID texnologiyalari bilan kutubxona operatsiyalarini avtomatlashtirishga yo'naltirilgan.²⁰

Keyingi yillarda RFID (radio to'liqlik identifikatsiya) texnologiyasini kutubxonalarda tadbiq qilish to'g'risida ko'plab axborotlar e'lon qilinmoqda.²¹ IDlogic — bu turli xil masalalarni yechish uchun RFID texnologiyalarini joriy etish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan RFID uskunalari ishlab chiqaruvchi Rossiya kompaniyasi. IDlogic 2004 yildan beri RFID tizimlari bozorida faoliyat olib borib, ko'plab loyihalarni amalga oshirgan holda, hozirda yetakchi kompaniyalardan biri hisoblanadi. Hozirda mamalakatimizda O'zbekiston Milliy kutubxonasi, O'zbekiston Respublikasi ko'zi o'jizlar maxsus kutubxonasi, Respublika Bolalar kutubxonasi, Jizzax viloyati axborot-kutubxona markazi, Buxoro viloyati axborot-kutubxona markazi, Davlatobod tuman axborot-kutubxona markazi va 17 ta universitet axborot-resurs markazlarida keng qo'llanilmoqda.²²

Kutubxonalarda monitoringning maqsadi

Kutubxonalarda monitoring olib borish faqatgina ma'lumot yig'ish bilan cheklanmaydi, u yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali hisobdorlik, shaffoflik va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Kutubxonalarda monitoring olib borishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat.

- Xizmat sifatini baholash- Monitoring kutubxona xizmatlarining tashkilot maqsadlari va foydalanuvchi kutganlariga qanchalik mos kelishini aniqlash imkonini beradi. Turli xizmat ko'rsatkichlarini o'lchash orqali muammoli sohalarni aniqlash va ilg'or tajribalarni ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi.

- Resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash -Kutubxonalar katta hajmdagi jismoniy va raqamli materiallarga ega. Monitoring yordamida bu resurslardan qanday foydalanilayotgani kuzatiladi va foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan xarid va obuna investitsiyalari samaradorligi ta'minlanadi.

- Foydalanuvchi qoniqishi va faolligini oshirish - Foydalanuvchilarning xatti-harakatlari, istaklari va fikr-mulohazalarini tushunish – ular ehtiyojlariga mos xizmatlarni

²⁰ https://www.logicpulse.com/pt/gestao-de-bibliotecas?utm_source=chatgpt.com

²¹ Avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimi va kutubxonalarda RFID texnologiyasidan foydalanish -Xalilova M. Addujalilova D. "Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo'llanilishi" mavzusidagi ilmiy online konferensiya to'plami-2023

²² <https://idlogic.uz/>

yaratish uchun muhimdir. Monitoring bu kabi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishni ta'minlaydi hamda xizmatlarni yanada takomillashtirishga yo'naltiradi.

- Xodimlar faoliyatini baholash va rivojlantirish - Monitoring kutubxona xodimlarining ish yuklamasi, samaradorligi va malaka bo'shliqlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa maqsadli o'quv dasturlarini ishlab chiqish va xodimlarni ra'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

- Me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini va hisobdorlikni ta'minlash - Kutubxonalar turli institut, huquqiy va kasbiy me'yorlarga asoslanib faoliyat yuritadi. Monitoring ushbu standartlarga rioya qilinishini ta'minlaydi va manfaatdor tomonlar hamda moliyalashtiruvchi tashkilotlar oldida kutubxonaning hisobdorligini kafolatlaydi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tizimidagi 186 tuman tuman(shahar) axborot-kutubxona markazlarning choraklik, yillik hisobotlarini tahlil qilishda Microsoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan elektron jadvallar Microsoft Excel dasturidan foydalanib kelinmoqda. Excel ko'plab sohalarda, jumladan buxgalteriya, tahlil, statistika, hisobotlar tayyorlash, rejalashtirish va boshqalar uchun keng qo'llaniladi. Unda avtomatik hisob-kitoblar uchun ko'plab tayyor funksiyalar, ma'lumotlar asosida grafiklar va diagrammalar yaratish, saralash va filtr qilish orqali tahlil qilish va boshqa ko'plab imkoniyatlari bo'lsada, kutubxona sohasidagi ma'lumotlarni to'laqonli, analitik tahlil qilishda qisman yordam beradi halos. RFID texnologiyasi ayrim kutubxonalarda joriy etilgan bo'lsa-da, ammo ular ham cheklangan yo'nalishda ma'lumot beradi. Hali barcha tuman kutubxonalarini yagona tahliliy tizimda birlashtirish imkonini beruvchi platforma ishlab chiqilmagan.

Kelajakda raqamli monitoring tizimlarini kengaytirish, yagona ma'lumotlar bazasini yaratish, hamda mahalliy kutubxonalarni global kutubxona tarmoqlariga integratsiya qilish — O'zbekiston kutubxonalari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мониторинг образовательных программ библиотечного-информационной направленности в условиях изменений нормативно-правового регулирования. - В.А. Мутьев- Вестник МГУКИ -2024-1(117)
2. <https://www.sirsidynix.com/bluecloud-analytics-2/>
3. [oclc.org](https://www.oclc.org)
4. [libis.be](https://www.libis.be)
5. https://www.logicpulse.com/pt/gestao-de-bibliotecas?utm_source=chatgpt.com

6. Avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimi va kutubxonalarda RFID texnologiyasidan foydalanish -Xalikova M. Addujalilova D. “Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo’llanilishi” mavzusidagi ilmiy online konferensiya to’plami-2023

7. <https://idlogic.uz/>